

8-SINF “ONA TILI” DARSLIKLARIDA O’QUVCHILARNING LUG’AT BILAN
ISHLASH KO’NIKMASINI OSHIRISHGA QARATILGAN TOPSHIRIQLARNI
O’QITISH

Shomurodova Gulnora Sherbek qizi
Xolmurodova Tabassum Nurmurod qizi
Qosimova Shodiya Sodiq qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lug’at o’zi nima? 8-sinf Ona tili darsliklarida lug’at bilan ishlashning o’rni qandayligi haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, lug’at turlari va ularning o’quvchilar uchun ahamiyati ta’kidlab o’tiladi. 8-onalik darsligida berilgan lug’at bilan ishlash bo’yicha topshiriqlarni o’qitish metodlari keltirib o’tiladi.*

Kalit so’zlar: *Ona tili , lug’at , ensiklopedik lug’at , lisoniy lug’at , adabiy til , sheva , faol so’zlar , nofaol so’zlar , matn , yangi so’zlar , talaffuz , ko’p ma’no , so’z birikmasi , bir tilli lug’at , ikki tilli lug’at , qayta bayon qilish.*

Аннотация: Что такое лексика в этой статье? В учебниках по родному языку говорится о роли работы со словарным запасом. Он также выделяет типы словарного запаса и их важность для учащихся.

Ключевые слова: Родной язык, словарь, энциклопедический словарь, лингвистический словарь, литературный язык, диалект, действительные слова, пассивные слова, текст, новые слова, множественное число. Вы составной, одноязычный словарь, двухязычный словарь, многоязычный словарь, переформулировка.

Annotation: In this article, we will find answers to the questions, what is a dictionary? Native language textbooks talk about working with vocabulary. It also highlights the types of vocabulary and their importance for students.

Key words: Mother tongue, dictionary, encyclopedic dictionary, linguistic dictionary, literary language, dialect, active words, passive words, text, new words, plural meaning. You compound, monolingual dictionary, bilingual dictionary, multilingual dictionary, restatement.

Ona tili – har bir elatning, millatning o’z tili. Ona tili lug’at tarkibi, shu xalqning madaniyati, urf-odatlarini ifodalovchi so’z va tushunchalardan tarkib topadi. Shunday ekan, tilni lug’at tarkibisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Lug’at – 1) Muayyan hududda yoki shevada mavjud bo’lgan so’zlar yig’indisi, leksika. 2) So’zlar, so’z birikmalari, iboralar ma’lum tartibda joylashgan , uning kelib chiqish tarixi , ma’nolari qaysi uslubga xosligi, talaffuzi kabilar izohlangan kitob.

Lug’atlar o’quvchilar uchun muayyan ahamiyatga ega . Ular o’quvchilarni ma’lum tillar bilan tanishtirishga , biron narsa haqida ma’lumot yetkazishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, maktab darsliklaridagi matndagi noaniq , tushunarsiz, nofaol

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6 ISSUE-12 (30- December)

so'zlarning ma'nolariga izoh berish o'quvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilardan lug'at – diktantlar olish natijasida ulardagi lug'at boyligini oshirish , nutqida ishlatilmaydigan so'zlarni faol nutqqa o'tkazishga erishish mumkin. Har bir lug'at turi o'quvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Shu nuqta'I nazardan, tilshunosligimizdagi lug'atlarning bir nechta so'zini sanab o'tamiz.

1. Ko'zlangan maqsadiga ko'ra lug'at turlari:

- a) ensiklopedik (qomusiy) lug'at.
- b) Lisoniy (lingvistik) lug'at

Ensiklopedik lug'atlarda tabiat va jamiyatdagi narsa – hodisalar, tarixiy voqeа – jarayonlar , buyuk shaxslar , davlatlar haqida ma'lumotlar beradi. Lisoniy lug'atlarda esa, so'zning ma'nosi , imlosi , talaffuzi, xullas, barcha til birliklari haqida ma'lumot beriladi. Bunday lug'atlarga izohli, imlo , tarjima lug'atlarini kiritishimiz mumkin. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) , "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" (Sh. Rahmatullayev, N.Mallayev, R. Shukurov .1980)

2. Tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'at turlari :

- a) Bir tilli
- b) Ikki tilli
- c) Ko'p tilli

"Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (H. Homidiy, Sh.Abdullayeva , S. Ibrohimova 1967) bir tilli, "Adabiyotshunoslikning qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'ati " (N.T. Hotamov 1969) ikki tilli, " Lotincha – o'zbekcha – ruscha normal antonimiya lug'ati " (A.A.Asqarov , H.Z.Zohidov 1964) ko'p tilli lug'atlarga misol bo'ladi .

Maktabda o'quvchilar nutqini rivojlantirishda har bitta lug'at turining o'z o'rni bor . Shunga ko'ra, lug'at ustida ishlash metodikasi to'rtta asosiy yo'nalishdan iborat:

1.O'quvchilar lug'atini boyitish ya'ni yangi so'zlarni , bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tili darslarida bir nechta yangi so'zlarning ma'nosini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

2.O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bunda o'quvchi to'liq ma'nosini bilmagan so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish , uning ko'p ma'nolarini topish , sinonim va antonimlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

3. Lug'atni faollashtirish ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan , ammo o'z nutq faoliyatida ishlatilmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida gaplar, birikmalar , matnlar tuziladi hamda ular qayta bayon qilish yoki yozish orqali mustahkamlanadi.

4.Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. O'quvchilar nutqida faol qo'llanadigan so'zlarni boshqa adabiy tildagi ma'nodoshlari bilan almashtirish va ulardan matnda foydalanish orqali tashkil etiladi.

Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishslash .

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6 ISSUE-12 (30- December)

Afv deb kechurmakni aytilar. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olub, o'kunub , kechurmakni so'rasha , afv qilmoq lozimdir. Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali , insoniyatning fazilatidur. Janobi Haq "Qur'oni Karim" da afvni maqtob madh qilmishdir. Oliyjanob kishilar uzurni qabul qilur. Bir kishi qusur va qabohatini bo'yniga olub uzr aytsha , afv qilur , kechirur . Kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmakda emas , balki afv qilmakdadur.

Abdulla Avloniy " Turkiy guliston yoxud axloq"

8-sinf ona tili darsligida berilgan yuqoridagi matn asosida lug'at ustida ishlaymiz va ma'nosini aniqlaymiz.

*afv – gunohidan o'tish, kechish , kechirim , uzr.

*xulq – [xulq+atvor] fe'l – atvor , xarakter .

*afzal – eng fozil , fazilatli . Yaxshi a'lo, ortiq .

*fazilat – (arabcha) 1. Afzallik, ijobiy xislat. Yaxshi xulq va xususiyat.2. Xotin – qizlar ismi.

*madh – (arabcha) maqtov , hamd – sano aytmoq.

*qusur – (arabcha) kamchilik, nuqson , nomukammallik.

*qabohat -(arabcha) qabih ish , razillik , beadablik .Yaramas xatti – harakat.

*o'ch – haqorat , alam , yomonlik uchun qilinadigan javob tarzidagi ish , yomonlik , qasd.

So'z	Izohi
Navozanda	kuy ijro etuvchi
Nazarkarda	ulug' kishilarning nazari tushgan.
Nabotot	o'simliklar dunyosi

Shu kabi lug'atlarni ma'nosini o'raganish orqali lug'at boyliklarini oshirish mumkin.

108-topshiriq. Navozish, nazarkarda, nabi, nabotot, navozanda so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling: 1) xudoning xabarini yetkazuvchi; 2) o'simliklar dunyosi; 3) kuy ijro etuvchi; 4) navo qiluvchi; 5) sozanda; 6) mulozamat; 7) lutf; 8) marhamat; 9) erkalash; 10) ulug' kishilarning nazari tushgan.

Shu kabi topshiriqlarni o'qitishda o'quvchilarga quyidagi metodni qo'llash mumkin.

So'z

Izohi

Navozanda kuy ijro etuvchi

Nazarkarda ulug' kishilarning nazari tushgan.

Nabotot o'simliklar dunyosi

"Kim ko'p aytadi" didaktik o'yini . Bunda o'qituvchi ona tili darslarida dars davomida o'zlashtirilgan so'zlar yuzasidan musobaqa uyushitiradi. Bu o'yinda barcha o'quvchilar ishtirok etadilar .Har bir dars davomida o'zlashtirilgan so'zlarni o'quvchilar bittadan aytadilar. Kimki ayta olmay to'xtab qolsa , o'yindan chetlashtiradi.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6 ISSUE-12 (30- December)**

Qaysi o'quvchi o'yin oxirigacha qolsa , ya'ni so'z ayta olmay to'xtab qolmasa o'sha o'quvchi Lider deb topiladi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi birinchi jild. Toshkent . 2000
2. "Falsafa, Mantiq, Etika, Estetika"fanidan ma'ruzalar matni.Toshkent-2018.B.90.
3. 8- sinf Ona-tili darsligi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2019. B.51.
4. 1.A.B.Xolmirzayev "Til va uning me'yorlari", Nukus, 2009 y
5. 2. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2019.